

YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA BADIY OBRAZ YARATISH KO'NIKMASINING METODOLOGIK ASOSLARI

Ismatova Muhabbat Alibek qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

Ozoda Anorqulova

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori (DSc)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20520793>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada yozma nutq madaniyatini oshirishda badiiy obraz yaratish jarayonining metodologik tamoyillari va tarkibiy qismlari tadqiq etilgan. Muallif nutqiy tasvir vositalari (metafora, epitet, metonimiya va boshqalar)ning yozma matnning semantik va estetik qiyofasini shakllantirishdagi o'rni ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida badiiy obrazni yaratishda kognitiv va lingvistik yondashuvlar sintezi asosiy e'tiborda holda qoldirilgan. Maqola nazariy xulosalar hamda yozma nutq mahoratini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: yozma nutq, badiiy obraz, metodologik asoslar, lingvistik vositalar, estetik ta'sir, nutq madaniyati, kognitiv yondashuv.

АННОТАЦИЯ В данной статье рассматриваются методологические принципы и компоненты процесса создания художественного образа в совершенствовании культуры письменной речи. Автор анализирует роль речевой образности (метафоры, эпитета, метонимии и др.) в формировании семантического и эстетического образа письменного текста. В ходе исследования основной акцент сделан на синтезе познавательных и лингвистических подходов к созданию художественного образа. Статья обогащена теоретическими выводами и методическими рекомендациями, направленными на совершенствование навыков письменной речи.

Ключевые слова: письменная речь, художественный образ, методологические основы, лингвистические средства, эстетическое воздействие, речевая культура, когнитивный подход.

ABSTRACT This article examines the methodological principles and components of the process of creating an artistic image in improving the culture of written speech. The author considers the role of speech imagery (metaphor, epithet, metonymy, etc.) in the formation of the semantic and aesthetic image of a written text. During the research, the main emphasis was placed on the synthesis of cognitive and linguistic approaches to creating an artistic image. The article is enriched with theoretical conclusions and methodological recommendations aimed at improving the skills of written speech.

Keywords: written speech, artistic image, methodological foundations, linguistic means, aesthetic impact, speech culture, cognitive approach.

O'quvchilarda yozma nutqni rivojlantirish – bu nafaqat imlo qoidalarini bilish, balki fikrni tizimli, mantiqiy va boy tarzda bayon etish ko'nikmasidir. O'quvchilarda yozma nutqni rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishda kreativ yozish, mantiqiy va argumentativ yozish, funksional yozish (Hayotiy ko'nikmalar) yozma nutqni har jihatdan boyituvchi unga estetik kayfiyat beruvchi tarmoqlardir. Kreativ yozishda tasviriy yozish, davomi ko'rinmagan hikoya, personaj nomidan yozish kabi metodlar ushbu tarmoqni yoritib beradi. Tasviriy yozishda berilgan rasm yoki video lavha asosida voqeani tasvirlab berish, davomi ko'rinmagan

hikoyada biror o'quvchining o'z tasavvuriga qoldirish orqali yozma nutqqa muhim e'tibor qaratiladi va personaj nomidan yozishda tarixiy shaxs yoki badiiy qahramon nomidan kundalik yuritish nazarda tutiladi va shu metodlar orqali kreativ yozish yozma nutqni rivojlantirishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

O'quvchilarda yozma nutqni rivojlantirishda mantiqiy va argumentativ yozishda insho va esse yozish orqali yozma nutqning muammosining sabab va oqibatlari tahlil qilinadi, debatda ya'ni yozma yozma debatda biror mavzuda "argument uchun" va "argumentga qarshi" fikrlarni yozishda qo'l keladi va sharh yozish orqali o'qilgan kitob yoki ko'rilgan film haqida tanqidiy va tahliliy fikr bildirish mumkinligi ayon bo'ladi.

O'quvchilarda yozma nutqni rivojlantirishda funksional yozish ya'ni hayotiy ko'nikmalarda rasmiy xatlar – ariza, murojaat yoki taklif xati yozish uslubini o'rgatish; email va xabarlar – zamonaviy muloqot etiketini (odobini) o'rgatish eng asosiy bosqich, hayotiy ko'nikmalar orqali yozma nutqni rivojlantirishga e'tibor qaratishdir.

O'quvchilarda yozma nutqni rivojlantirishda rivojlanish bosqichlariga lug'at boyligini oshirish, rejalashtirish, qoralama yozish, tahrirlashlarni ham kiritish mumkin. Yangi so'zlar bilan tanishish, va ularni kontekstda qo'llash, yozishdan oldin mavzuni reja ko'rinishida tuzishni o'rganish, birinchi urinishda xatolarga e'tibor bermay, faqat g'oyani to'kib solish, yozilgan matnni qayta o'qib mantiqiy uzilishlarni va grammatik xatolarni tuzatishdan iborat.

Aytish joizki, amaliyot jihatdan qaralsa, o'qituvchi yoki baholovchi o'quvchilarda yozma nutqni rivojlantirishda faqat grammatik xatolarni emas, balki fikrning izchilligini ham baholashi zarur va xatoni ko'rsatish emas, balki "bu fikrni qanday qilib chiroyliroq ifodalash mumkin?" deb yo'naltirish joiz. Ko'p o'qigan o'quvchi yaxshi yozadi, shuning uchun badiiy va ilmiy matnlarni tahlil qilish orqali qoliplarni tahlil qilishni o'rgatish orqali ularda yozish ko'nikmasi yaxshilanib boradi. O'qituvchi uchun o'quvchida yozma nutqni rivojlantirishda o'quvchiga haftada bir yoki ikki marta insho yozdirishidan ko'ra, har kuni 5-10 daqiqalik "fikrlar kundaligi" ni yozishi samaraliroq deb hisoblanadi.

Mavzuning asl maqsadi bo'lmish yozma nutqni rivojlantirishda badiiy obraz yaratish ko'nikmasiga asosiy e'tibor qaratilsa, yozma nutqni rivojlantirishda badiiy obraz yaratish ko'nikmasining metodologik asoslari mavzusi metodologik jihatdan **pedagogika, psixologiya va filologiya** (literaturoshunoslik) asoslarining chorrahasida yotadi. Dissertatsiya ishida yozma nutqni rivojlantirishda badiiy obraz yaratish ko'nikmasining metodologik asoslari qismini bir necha tizimli bloklarga bo'lib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

Pedagogik metodologik asoslar (O'qitish nazariyalari);

Psixologik metodologik asoslar (Inson ongining ishlashi);

Lingvistik va literaturoshunoslik metodologiyasi.

Dastlab, yozma nutqni shakllantirishda badiiy obraz yaratish – bu shunchaki matn yozish emas, balki ijodiy faoliyatni tashkil etishdir. Yozma nutqni rivojlantirishda badiiy obraz yaratish ko'nikmasining pedagogik metodologik asoslari dastlab, faoliyat yondashuvi (Activity-based approach)da namoyon bo'ladi. Faoliyat yondashuvi (Activity-based approach)da o'quvchi nutqni "iste'mol qiluvchi" emas, balki obrazni "yaratuvchi" subyekt sifatida qaraladi. Yozma nutq jarayoni o'quvchining ichki dunyosini tashqi ko'rinishga (matnga) o'tkazish faoliyati sifatida ko'riladi. Bundan tashqari, pedagogik metodologiyaning konstruktiv pedagogikasida o'quvchi o'z nutqiy obrazlarini mavjud bilimlar va tajribalar asosida mustaqil "qurishi" (konstruksiya qilishi) kerak. Bu jarayonda o'qituvchi yo'l ko'rsatuvchi (fasilitator) rolini

o'ynaydi. Qolaversa, yozma nutqni rivojlantirishda badiiy obraz yaratish ko'nikmasining metodologik asoslari pedagogik metodologiyasida kompetensiyali yondashuv ham muhim o'rin tutadi. Badiiy obraz yaratish ko'nikmasi — bu kommunikativ kompetensiya va ijodiy kompetensiyaning integratsiyasi sifatida talqin qilinadi.

Ko'rishimiz mumkinki, yozma nutqni rivojlantirishda badiiy obraz yaratish ko'nikmasining metodologik asoslaridagi yana bir yondashuv sifatida olgan asosimiz bu — psixologik metodologik asoslar. Psixologik metodologik asoslar ya'ni inson ongining ishlashida obraz yaratish — bu psixologik jarayonlar zanjirining hosil bo'lishi va ishlashi hisoblanadi.

Tasavvur (Imaginatsiya) nazariyasi – yozma nutq tasavvurni nutqiy vositalar (so'z, metafora, epitet) orqali modellashtirishdir. Metodologik asos sifatida tasavvurning reproduktiv (takrorlovchi) va kreativ (yangi yaratuvchi) funksiyalari olinadi.

Kognitiv psixologiyada obraz yaratish — bu kognitiv jarayon (idrok etish, eslash, tahlil qilish va sintez qilish) sifatida qaraladi. O'quvchi olamdagi hodisani kognitiv darajada tahlil qiladi va uni nutqiy modelga aylantiradi.

Emotsional intellekt (EQ), badiiy obraz emotsiya (his-tuyg'u)ga asoslanadi. Metodologik jihatdan, yozma nutqni rivojlantirishda o'quvchining hissiy tajribasini nutqiy vositalar bilan bog'lash asosiy mezon bo'ladi.

Lingvistik va literaturoshunoslik metodologiyasi yozma nutqni rivojlantirishda tildagi lisoniy vositalarning bir tartibda bo'lishi va ma'no-mazmun kasb etishida yuksak rol o'ynaydi. Bu qism “obraz”ning qanday vositalar orqali yozma matnga aylanishini tushuntiradi.

Lingvistik va literaturoshunoslik metodologiyasida stilistik yondashuv bunda badiiy obraz yaratishda leksik, frazeologik va sintaktik vositalarning (metafora, metonimiya, personifikatsiya) qo'llanilishi, yozma nutqning estetik funksiyasini ta'minlash sifatida tushuniladi.

Ushbu metodologiyaning yana bir diskursiv yondashuvi - matnni shunchaki so'zlar to'plami emas, balki ma'lum bir kontekst va maqsad asosida yaratilgan “obrazli diskurs” sifatida o'rganish hisoblanadi.

Semiotik yondashuv (Belgilar nazariyasi)da badiiy obraz — bu ma'lum bir belgi (simvol) tizimi. Yozma nutqda o'quvchi o'z g'oyalarini ramzlar va belgilar tizimi orqali ifodalashi metodologik jihatdan asoslanadi.

Yozma nutqni rivojlantirishda metodologik asos sifatida “Integrativ yondashuv”ni taklif qilishimiz mumkin. Ya'ni, yozma nutqni rivojlantirish uchun integrativ yondashuvda pedagogika (o'qitish usuli), psixologiya (tasavvur jarayoni) va lingvistika (til vositalari)ni birlashtiruvchi yagona tizim deb qarashilishi mumkin.

Yozma nutqni rivojlantirishda metodologiyalarga to'xtanilinsa, integrativ yondashuvda metod sifatida, nimaniki, foydali mashq namunasi: “Nima bo'lardi?” metodi orqali o'quvchiga quyidagi savollarni berish mumkin:

- “Agar insonlar gaplashish o'rniga faqat yozishsa, dunyo qanday o'zgaradi?”;
- “Agar internet bir kunga o'chib qolsa, hayotingiz qanday kechardi?”

Bu turdagi savollar o'quvchini nafaqat yozishga, balki chuqur mulohaza yuritishga majbur qiladi.

Yaqinda taniqli turk tilshunos olimi, turkolog va akademik Prof.Dr. Ali Akar bilan suhbat jarayonida yozma nutqni rivojlantirishda badiiy obraz yaratish ko'nikmasining metodologik asoslari mavzusida ulardan bu borada o'quvchilarning badiiy obraz yaratishda yozma nutqini

rivojlantirish bo'yicha qanday metodlar borligi so'ralganida, Turkiyada bolalar yoki o'quvchilarga derazadan tashqarida nimani ko'rsa shuni esse yoki o'zlari xohlagan yo'nalishda tasvirlashlari, bu esa ularning fikrlarini psixologik, pedagogik va erkin ijodkorlik nuqtayi nazar jihatdan tahlil eta olish mumkin ekanligini ta'kidlaydi. Masalan, dengizning ovozida nimalarni his qilayotgani, bu ovoz qanday estetik go'zallik uyg'otayotganini tasvirlashlari mumkinligi aytiladi.

Nutqni rivojlantirishda badiiy obraz yaratish – bu so'zlarni shunchaki ma'lumot beruvchi vosita emas, balki tinglovchining tasavvurini uyg'otuvchi vosita sifatida ishlatishdir. Badiiy obraz yaratish ko'nikmasini shakllantirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

1. Metafora va o'xshatish metodlari:

Bu eng asosiy metoddir. Bir narsani boshqa narsaga o'xshatish orqali tushunchani jonlantirish, masalan, o'xshatish: “U shunday tez yugurardiki, xuddi shamol kabi edi” (Taqqoslash orqali obraz berish). Metafora orqali: “Uning qalbi muzdek sovuq” (To'g'ridan-to'g'ri o'xshatish orqali hissiyot uyg'otish).

2. Epitetlar (sifatlash) metodi

Oddiy sifatlardan qochib, emotsional va rangdor sifatlardan foydalanish. Masalan, *oddiy*: “Katta dengiz”, *badiiy*: “Cheksiz, g'oyib bo'lgudek musaffo va chuqur dengiz” Mashq orqali bajarilsa: Berilgan oddiy otlarga (masalan: quyosh, yomg'ir, ko'z) kamida 3 ta noodatiy epitet topish.

3. Personifikatsiya (jonlantirish) metodi

Jonsiz narsalarga insoniy xususiyatlarni berish. Bu nutqni dramatik va qiziqarli qiladi. *Misol uchun*: “Shamol pichirlab gapirdi”, “Yomg'ir yerga yig'layapti”. Bunda maqsad tinglovchida narsalar bilan xayoliy bog'liqlik hosil qilish.

4. Sensor (hissiyotlar) metodi. Obrazni yaratishda 5 ta sezgi a'zosiga murojaat qilish:

Ko'rish – ranglar va shakllar; eshitish – tovushlar va ohanglar; hid – atrof-muhit hidi; maza – ta'm va hid; taqillash (tekstura) – silliqlik yoki g'o'ng'allik; mashq – biror voqeani (masalan, tong orti) faqat hid va tovushlar orqali tasvirlash.

5. Hiperbola (mubolag'a) metodi. Obrazning ta'sir kuchini oshirish uchun o'ta oshirib ko'rsatish.

– *Misol*: “Uning ko'z yoshlari daryo bo'lib oqdi”

– Maqsad: Vaziyatning jiddiyligini yoki his-tuyg'uning kuchini ta'kidlash.

6. Kontrast (ziddiyat) metodi. Ikki qarama-qarshi obrazni yonma-yon keltirish orqali birini ajratib ko'rsatish.

– *Misol*: “Oq qorda qora tomchi”, “Olov ichidagi muzdek salqinlik”

– Maqsad: Vizual va emotsional keskinlik hosil qilish.

– Amaliy tavsiya (Mashq tartibi):

1. “Tasvirlash zanjiri”: Bir jumlaning olib, yuqoridagi metodlar yordamida bosqichma-bosqich boyiting.

– *1-bosqich*: Quyosh chiqdi.

– *2-bosqich*: Oltin rangli quyosh chiqdi.

– *3-bosqich*: Quyosh osmon chekkasidan oltin rangli olov kabi ko'tarildi.

2. “Ko'z yumib tasavvur qilish”: Biror mavzuni nutq qilayotganda, ko'z oldingizda kino kabi tasvirni ko'ring, so'ng o'sha tasvirni so'zga aylantiring.

Xulosa qilib aytganda, yozma nutqda badiiy obraz yaratish shunchaki estetik vosita emas, balki ma'lumotni transformatsiya qilish va tinglovchi/o'quvchi psixologiyasiga ta'sir ko'rsatish mexanizmidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, metodologik jihatdan obraz yaratish jarayoni lingvistik vositalar (metafora, epitet, personifikatsiya) va kognitiv jarayonlarning (tasavvur, analogiya) sintezi hisoblanadi. Shuning uchun yozma nutq madaniyatini oshirishda ushbu metodologik asoslarni tizimli ravishda qo'llash, matnning semantik boyligini va kommunikativ samaradorligini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Aristotel.Poetika.(Poeziya san'ati haqida) Mas'ul muharir I.Sulton. Ruschadan M.Mahmudov tarjimasi. T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980, 152 b.
2. Adabiyotshunoslikka kirish:Un-tlar va pedagogika in-tlarining filol. fak. student uchun darslik.N.Shukurova, N.Xotamov. Sh.Xolmatov. —2—qayta ishlangan va to'dirilgan nashri.. — T.:O'qituvchi, 1984. —272b.
3. Badiiy tahlil asoslari fanidan ma'ruzalar matni: Bakavriatning O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi uchun ma'ruzalar matni.Aldasheva Sh.Nukus-2010